



O'QUVCHILARDA MULOQOTCHANLIKNI SHAKLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TOMONLARI

Najmiddinova Shohista Ortig'aliyevna

Namangan viloyati Kosonsoy tumani MMTB qarashli

20- umumtalim maktabi amalyotchi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali muallif o'quvchilardagi muloqotchanlik ko'nikmalarni qanday yo'naltirish, uni rivojlantirish yo'llari haqida tushuntirib o'tadi.

Kalit so'zlar: Muloqot, komunikatsiya, qarama-qarshilik, shaxs meni, adaptatsiya.

Insoniyat paydo bo'libdiki doimo atrof muhit bilan faol munosabatda bo'ladi. Insonda muloqot ko'nikmasi qanchalik rivojlangan bo'lsa unda shunchalik notiqlik san'ati mavjud bo'ladi. “So'z insonning eng kuchli quroli” degan edi mashhur faylasuf Aristotel. Insondagi hech bir narsa so'zchalik kuchli ta'sir kuchiga ega emas. Biz unutmasligimiz kerakki, insoniyatni maxluqot olamidan ajratib turuvchi narsa ham mana shu so'z bo'ladi. So'z bo'lganda ham har qanday so'z emas, balki badiiy amaliy til me'yorlariga amal qilgan so'zlar, uni mahorat bilan go'zal tarzda yetkazib beruvchi notiq tilidan so'zlangan so'zlar eng kuchli vositaga aylanadi. Bunday so'zlar esa har bir qalbga yetib boradi.

Notiqlik san'ati eng avvalo notiqdagi mavjud qobilyat va iste'dodni shakllantirishga qaratilgan soha bo'lib, u notiqning qobilyati hamda istedodini shakllantiruvchi ilmdir. Insonga fikrni ijro etish uchun sezgi organlaridan biri sifatida alloh tomonidan til beriladi. Aqlni esa inson ixtiyoriga qoldiradi. Shuning uchun inson aqlini ishlatib, tili orqali so'zlarini(nutqini) bayon etishga kirishadi. Biz shu o'rinda notiqlik, notiqlik san'atini haqida so'zlaydigan bo'lsak. Notiqlik- bu nutqning og'zaki shaklidir. Notiqlik san'ati esa og'zaki nutq san'atidir. Notiqlik bu qobilyat, shaxsiy qobilyat hisoblanadi. Bizning oldimizga qo'yilgan vazifa esa har bir talabada mana shunday san'atni



shakllantirmog'imiz zarur. Chunki pedagog o'zidagi bor ilmini mana shu so'z san'ati orqaligina o'quvchilarga yetkazib beradi. Shunday ekan shu o'rinda savol tug'iladi notiqlik san'atini biz o'quvchilarda qanday shakllantirmog'imiz kerak. Albatta bunga insondagi psixologik xususiyatlarni ishga solib pedagogik mahoratdan kelib chiqib erishiladi.

Notiqning ovozida quydagi xususiyatlar bo'lmog'i lozim.

1. Jarangdorlik
2. Keng diapazonlik
3. Havodorlik
4. Ixchamlilik, xarakatchanlik
5. Moslashuvchanlik.

Nutqning to'g'riligi uning eng muhim aloqaviy fazilatidir. Nutq to'g'ri bo'lmasa, boshqa kommunikativ fazilatlari ham buziladi. Nutqning tuzilishi to'g'ri bo'lmaganda, uning mantiqiyliqi, aniqligi, o'rinniligi kabilar haqida gapirib ham bo'lmaydi. To'g'ri nutq tuzish uchun so'zlovchi adabiy til normalarini egallab olgan bo'lmog'i lozim. Bu esa juda murakkab sermashaqqat ishdur.

Aristotel notiqlik san'atini egallashni 5 qismga bo'lib o'rgatadi.

1. Materialni kashf etish
2. Materialni joylashtirish shakli
3. Materialni eslab qolish
4. Materialni so'z yordamida to'g'ri aks ettirish
5. Materialni to'g'ri talaffuz etish

Aristotel notiqning auditoriyani o'ziga jalb etishi uchun hazil mutoyiba bilan lirik chekinish qilib, tinglovchilarni hayajonlantira bilishi zarurligini, agar turli ko'rgazmali qurollardan foydalansa, har xil epitet, chog'ishtirish metaforalarni qo'llasa nutqning ta'sirchanligini yanada oshirishini, ammo keltirilgan misollar ko'payib ketib, tinglovchini zeriktirib ham qo'ymasligi kerakligini ham ta'kidlaydi. Shuning uchun biz talabalarda notiqlik san'atini shakllantirmoqchi bo'lsak, ham pedagogik ham psixologik qoidalarni o'rgatishimiz kerak va ular ham buni amaliyotda qo'llay bilishlari kerak. Notiq amal



qilishi zarur bo'lgan qoidalarini ularga anglatmog'imiz kerak va bularni notiq hech qachon yodidan chiqarmasligi kerak.

- Har bir nutqning boshlanishi, o'rtasi va oxiri bo'ladi. Eng muhimi, nutqingiz oxirini qanday tugatishni esda saqlang. - Agar sizga reglament belgilangan bo'lsa, yaxshisi nutqingiz rejasini tuzing. Rejada asosiy punktlar saqlansin: aniqliq talab qiluvchi xabarlar vaqti, statistik ma'lumotlar va iqtiboslar (sitata), murakkab yoki kam tanish bo'lgan so'zlar, terminlar va hakoza.

- Siz notiqsiz, birinchi jumlaning va nutqning xulosasini o'ylashga majbursiz, qolgan gaplarni o'z yo'nalishida bog'lab boraverishingiz mumkin. Agarda juda o'zingizga ishonsangiz sizda bu munosabatlarda to'siqlar bo'lmaydi.

- Rasmiy hujjatlarni, notanish matnlarni o'qib berishingiz mumkin. Nutqning boshqa turlari esa o'qiganlaringizni mustahkamlaydi. Ya'ni, yuqorida ko'rsatilgan matnlardan tashqari qo'shimcha nutq matnini yozish shart emas. Chunki yozgan matnlaringiz gapirishingizni qiyinlashtiradi. Tajribasiz notiq yozilganlardan nimanidir tushirib qoldirishdan qo'rqib, battar xatoga yo'l qo'yishi mumkin.

- Ommaviy auditoriyada chiqish qilayotgan notiq o'ziga ishongan, jismoniy ko'rinishi dadil, jasur va vazmin hamda tashqi ko'rinishi bilan jozibali bo'lmog'i lozim. Shuning uchun omma oldida chiqish qilishdan oldin tashqi qiyofangizning go'zal bo'lishiga intiling.

- Ko'pchilik, jumladan, tajribali notiqchalar ham gapirish oldidan hayajonlanadi. Bu hayajonlanish tabiiy va foydali. Agar hayajonlanish bo'lmasa, demak, notiq o'z nutqiga mas'uliyatsiz, auditoriyaga e'tiborsiz.

- Juda qattiq hayajonlanish zararli. Undan qochish kerak. Chiqish qilish oldidan yaxshi narsalarni o'ylab nutq mazmunidan o'zingizni chalg'iting. Auditoriya haqida vahima qilmang. Agar buning iloji bo'lmasa yoki chalg'ish yordam bermasa, qo'llaringizni yelka kengligida qo'yib, barmoqlaringizni buking. So'ngra sakrab, bir qancha harakatlar qilib, orqaga chalqaying. Agar buni eplay olmasangiz oyoqlaringiz barmoqlarini kuchli harakat qildiring.

- Nutq oldidan va gapirayotgan paytingizda suv ichmang — suv yuragingizga keraksiz yuk bo'ladi va ovozingizni bo'g'adi. Chiqish qilish oldidan keraksiz gaplardan gaplashmang.



- Gapirish vaqti kelganda tashqi ko'rinishingizni to'g'rilab, dadil qadamlar bilan nutq so'zlash lozim bo'lgan joyni egallang. Yuqoridagi maqolada keltirilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, har bir talabada biz pedagoglar faqatgina ta'lim, tarbiya berib qolmasdan ularni shaxsiy xususiyatlarini shu jumladan nutq madaniyati, notiqlik san'atini shakllantirish ham vazifamiz ham burchimiz ekanligini yodimizda saqlamog'imiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kuznetsov I.N., Sovremennaya U.T “Ritorika” M. 2015
2. Bekmirzayev N. “Nutq madaniyati va notiqlik asoslari” T-“Fan” 2007
3. www.ziyonet.uz
4. www.edu.uz